

**KRIMINOGEN VAZIYATNI NAZORAT QILISHDA GEOINFORMATSION
TIZIMLARIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY DAVLATLARNING
QONUNCHILIK HUJJATLARI TAHLILI**

Ikanov Azamat Agzamovich

*Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i ,
yu.f.b.f.d.(PhD), k.i.x.,*

Alijonov Ibrohimjon Rustamjon o‘g‘li

*Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi
yu.f.b.f.d.(PhD) Jxu@mail.uz; 71-230-45-11(1037)*

Anotatsiya: mazkur maqolada Jamoat xavfsizligi universitetida AL-11325078166-son shartnomasiga asosan amalga oshiralayotgan “Kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining geoinformatsion xaritasining dasturiy ta’minotini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida geoinformatsion tizimlardan foydalanishga oid xorijiy davlatlar qonunchiligi tizimi tahlil qilingan, geoinformatsion tizimlar bo‘yicha qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar va muammolar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: kriminogen vaziyat, geoinformatsion tizimlar, ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi, jamoat xavfsizligi, milliy qonunchilik hujjatlari, situatsion markaz.

**АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ
ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ В КОНТРОЛЕ
КРИМИНОГЕННОЙ СИТУАЦИИ**

Аннотация: В данной статье проанализирована система законодательства зарубежных стран по использованию геоинформационных систем в рамках прикладного исследовательского проекта "Создание программного обеспечения геоинформационной карты города Ташкента для осуществления мониторинга криминогенной ситуации," реализуемого в Университете общественной безопасности на основании договора No AL-11325078166. Выявлены правовые пробелы и проблемы в законодательстве по геоинформационным системам.

Ключевые слова: криминогенная ситуация, геоинформационные системы, научно-прикладной исследовательский проект, общественная безопасность, национальные законодательные акты, ситуационный центр.

ANALYSIS OF FOREIGN LEGISLATIVE ACTS ON THE USE OF
GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEMS FOR MONITORING CRIMINAL
SITUATIONS

Abstract: *This article analyzes the legislation systems of foreign countries regarding the use of geographic information systems within the framework of the applied research project "Development of software for the geographic information map of Tashkent city for monitoring the criminogenic situation," implemented at the University of Public Security under contract No. AL-11325078166. Legal gaps and issues in the legislation on geographic information systems have been identified.*

Keywords: *criminogenic situation, geographic information systems, applied research project, public safety, national legislative acts, situation center.*

AL-11325078166-son shartnomasiga asosan, “Kriminogen vaziyatning monitoringini amalga oshirish uchun Toshkent shahrining geoinformatsion xaritasining dasturiy ta’minotini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida geoinformatsion tizimlardan foydalanishga oid xorijiy davlatlarning qonunchilik tizimi tahlil qilindi[1].

Geoinformatsion tizimlardan foydalanish bo’yicha xorijiy davlatlar tajribasi tahliliga ko’ra, ayni vaqtda dunyoda eng rivojlangan tizimlarga AQShning “GOOGLE Maps”, “Bing Maps”, Rossiyada ishlab chiqilgan “Yandex xarita” hamda turli davlatlarning geodeziya va kartografiya maqsadlarida foydalaniladigan “GIS” tizimlari kiradi.

Mazkur tizimlar ilk bor XX-asrning ikkinchi yarmida yaratilgan bo’lib, sun’iy yo’ldoshlar orqali koinotdan turib, yer ustini elektron platformaga tushirish yo’li bilan ishlangan hamda bugungi kunga kelib, fotosuratlar yordamida aholi yashash joylarining 3D modelini yaratish ishlari olib borilmoqda.

Dunyo tajribasiga ko’ra, geoinformatsion tizimlarining standartlari AQShda 1994-yilda tashkil topgan Open Geospatial Consortium (OGC) nomli nodavlat tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi va ayni vaqtda OGCning 30 dan ortiq turli standartlar[2] va ISO 19 100[3] - universal xarakteriga ega bo’lgan xalqaro standart mavjud.

Shu bilan birga, geoinformatsion ma’lumotlardan foydalanish qoidalari BMTning 2000-yilgi “Geoinformatsion tizimlari va raqamli xarita tuzish bo’yicha qo’llanma”[4] bilan tartibga solingan bo’lib, yagona universal hujjat hisoblanadi.

Ilk bor, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jumladan kriminogen vaziyatni nazorat qilishda geoinformatsion tizimlardan foydalanish amaliyoti AQShda yuzaga kelgan.

Xususan, 2005-yilda AQShning Chikago shahrida boshlangan bo’lib, Chicagocrime.org veb-saytida mazkur hududda sodir etilgan jinoyatlar soni, turi va joyi haqidagi ma’lumotlar shaharning xaritasida indekslar orqali kiritiladi[5].

Shuningdek, AQShda yagona NLETS (National Law Enforcement Telecommunications System) deya nomlangan geoinformatsion tizim[6] - bu federal, hududiy (shtatlar) va joylardagi (shahar-tumanlar) darajasida barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarini (politsiya, sheriflar, FBR, DEA, ICE, TSA, DOT kabi) qamrab olgan

jinoyatlar, jinoyatchilar, mahkumlar, transport vositalari va boshqa zarur bo‘lgan ma’lumotlar haqida o‘zaro ma’lumot almashish imkonini yaratuvchi kompyuter tarmog‘i hisoblanadi.

Biroq, AQShda geoinformatsion tizimlaridan foydalanish hamda mazkur tizimlar orqali shaxsning joylashuvi haqidagi ma’lumotlarni himoya qilishga qaratilgan alohida qonunchilik mavjud emas.

AQShda Geolocation Privacy and Surveillance Act deya nomlangan qonun loyihasi[7] 2011 yildan buyon ishlab chiqilgan bo‘lib, jamiyatda turli muhokamaga sabab bo‘lganligi uchun qabul qilinmagan.

Tadqiqot davomida dunyo mamlakatlari orasida geoinformatsion tizimlaridan foydalanish amaliyoti tahlil qilinib, eng rivojlangan mamlakatlarning tajribasi o‘rganildi.

Xususan, Yevropa ittifoqida axborot ma’lumotlari, jumladan geoinformatsion tizimlaridan foydalanish – 2016-yilda qabul qilingan General Data Protection Regulation[8] deya nomlangan qonun bilan tartibga solingan.

Mazkur qonun bilan barcha raqamli ma’lumotlarga ishlov berish va ularni himoyalash bo‘yicha keng qamrovli normalar belgilangan.

Shuningdek, geoinformatsion ma’lumotlardan kriminogen vaziyatni nazorat qilishda foydalanish – Schengen Information System II (SIS II)[9] deya nomlangan axborot-ma’lumotlar tizimi orqali amalga oshiriladi.

“SIS II” tizimi chegara, bojxona va politsiya idoralariga Shengen hududiga kirishi taqiqlangan shaxslar, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar to‘g‘risida onlayn ma’lumot almashish imkonini beradi.

O‘z navbatida, Yevropa ittifoqiga a‘zo bo‘lgan ayrim mamlakatlarda huquq-tartibotni ta’minlash maqsadida geoinformatsion ma’lumotlardan foydalanish bo‘yicha alohida qonunchilik hujjatlari mavjud.

Germaniyada mazkur faoliyat politsiyaning asosiy qonuni (Polizeigesetz) va har bir hudud uchun alohida qonunchilik bilan tartibga solingan[10].

Shuningdek, “Ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi federal qonun” (BDSG) bilan geoma’lumotlarga ishlov berish tartibini belgilab bergan.

Barcha 16 ta hududlarning qonunchiligi bilan politsiyaga quyidagi vakolatlar belgilab berilgan:

- shaxslar ustidan geoma’lumotlar yordamida onlayn nazorat o‘rnatish (Gefahrenabwehr);
- jinoyatlarni fosh etish va oldini olishda (Gefahrenabwehr/Strafverfolgung), ularning joyi, gumonlangan shaxslar va favqulodda hodisalar bo‘yicha ma’lumot olish;
- jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan holatlarda sud orderi asosida shaxslarni GPS yordamida kuzatish (GPS-Peilung);
- hududlarda videokuzatuv tizimlari yordamida nazoratni amalga oshirish (Videoüberwachung).

Fransiyada “Raqamli suverenitet to‘g‘risida”gi qonun (Loi pour une République Numérique)[11] bilan raqamli shaxsga doir, jumladan geoinformatsion xarakterga ega bo‘lgan ma‘lumotlar bilan ishlash tartibi quyidagi yo‘nalishlarda belgilangan:

- shaxsga doir ma‘lumotlarni himoya qilish;
- davlat va fuqarolik maqsadlarda geoma‘lumotlar bilan ishlash;
- geoma‘lumotlardan jinoyatlarning oldini olish va fosh etishda foydalanish;
- jinoyatchilik xaritasini yaratish va kuch-vositalarni boshqarish;
- shaxslarni aniqlashda videokuzatuv tizimi, shaxsning smartfonlari va dronlar yordamida aniqlash.

O‘z navbatida, Osiyo qit‘asi davlatlarda ham geoinformatsion tizimlardan foydalanish bo‘yicha alohida qonunchilik shakllangan, jumladan:

Janubiy Koreyada mazkur masala ikkita qonun bilan tartibga solingan:

1) “Geomakon ma‘lumotlarni boshqarish to‘g‘risida”gi qonun (National Spatial Data Infrastructure Act)[12] bilan davlat organlari, xususiy sektor va shaxslar tomonidan ma‘lumotlarni olish, tuzish, ularga ishlov berish va himoya qilish bo‘yicha asosiy normalarni belgilab bermoqda.

Bunda, mazkur qonun bilan Janubiy Koreyada shakllangan geomakon ma‘lumotlarni davlat hududidan chetga chiqarish qat‘iyan man etiladi.

2) “Joylashuv haqidagi ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi qonun (Act on the Protection of Personal Location Information)[13] bilan huquqni muhofaza qilish maqsadlarda shaxsning joylashuvi haqidagi ma‘lumotlardan foydalanish, jumladan jinoyat joyi, jinoyatchi yoki transport vositasi haqidagi geoinformatsion ma‘lumotlarni shakllantirish bo‘yicha normalar belgilangan.

Xitoyda 2002-yilda qabul qilingan “Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, geomakon ma‘lumotlardan foydalanish faqat XXR Davlat kengashi huzuridagi departament tomonidan berilgan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi[14].

Jumladan, Jamoat xavfsizligi vazirligi tomonidan quyidagi maqsadlarda geoinformatsion tizimlarini tashkil etishga ruxsat berilgan:

- faol kuzatuv – geoma‘lumotlardan kriminogen vaziyatni kuzatish, uni prognozlash va jinoyatlarning barvaqt oldini olish, favqulodda holatlar yuzaga kelganda kuch-vositalar va aholi harakatlarini tartibga solish;
- videokuzatuv tizimlari va mobil aloqa vositalari yordamida shaxsning aniq joylashgan joyi va uning harakatlanishi bo‘yicha ma‘lumotlardan foydalanish.

Yaponiyada huquq-tartibot maqsadlarda geoma‘lumotlardan foydalanish “Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi umumiy qonun (APPI)[15] bilan tartibga solingan.

Mazkur qonunga ko‘ra, politsiya tomonidan geoma‘lumotlardan jinoyatlarning oldini olish, fosh etish, qidiruvdagi shaxslarni aniqlash, kriminogen vaziyatni tahlil qilish maqsadlarda foydalanish bo‘yicha normalar belgilangan.

O‘z navbatida G‘arbiy Osiyo mamlakatlarining ayrimlarida ham geoinformatsion tizimlari aynan huquq-tartibot sohasiga keng jalb etilgan.

Misol uchun, Birlashgan Arab Amirligida Abu-Dabi va Dubay amirliklarida politsiya tomonidan jinoyatchilik holatini kuzatish, tahlil qilish va prognozlash orqali jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida geoinformatsion tizimlarini tashkil etish va ulardan foydalanish bo'yicha alohida qonunchilik hujjatlari mavjud[16].

Xususan, Dubayning “Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida”gi qonuniga ko'ra, politsiya tomonidan shaxsning joylashgan joyi sun'iy yo'ldoshlar orqali olingan ma'lumotlardan foydalanish, tergov va sud jarayonida geoma'lumotlardan foydalanish, kriminogen vaziyat haqidagi geoma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan foydalanish uchun maxsus normalar mavjud.

Yoki, Turkiyada geoma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq normalar “shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish” 5651-son hamda “Terrorizmga qarshi kurashish” 3713-son qonunlari bilan tartibga solingan bo'lib, politsiyaning jinoyatchini aniqlash va ushlab uchun zarur bo'lgan geoma'lumotlardan foydalanish vakolatlari belgilab berilgan[17].

Shu bilan birga, “Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish” to'g'risidagi 6698-son qonun bilan politsiya tomonidan geoma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish va ulardan foydalangan holda ma'lumotlar bazalarini yaratish haqidagi normalar tartibga solingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududida ham geoinformatsion tizimlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilayotgan bo'lib, o'ziga xos tajribani yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Xususan, 2015-yilda qabul qilingan 413-son federal qonun[18] bilan “geoinformatsion texnologiyalari”, “geoinformatsion tizimlari”, “geoinformatsion vositalari” hamda “fotoplan”, “foto xarita”, “ortofoto xarita” kabi tushunchalari yaratilgan bo'lib, ulardan davlat organlari va xususiy sektor tomonidan foydalanish tartibi belgilab berilgan.

Shuningdek, 2023 yilda mazkur qonunga kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, mazkur qonun doirasi harbiy va huquqni muhofaza qilish maqsadlarga ham tatbiq etilgan.

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2024 yilgi 729-son qaroriga ko'ra barcha tashkilotlar uchun geoma'lumotlarni tuzish, ulardan foydalanish, ularga ishlov berish va himoya qilish bo'yicha tartib belgilangan.

O'z navbatida, “Politsiya to'g'risida”gi FZ-3-son qonunga ko'ra[19] politsiyaga geoinformatsion tizimlarni tashkil etish, ulardan jinoyatchilik darajasini nazorat qilish va prognozlash uchun quyidagi maqsadlarda foydalanishga ruxsat berilgan.

- jinoyatlar, maxsus operatsiyalar va ommaviy tadbirlar o'tkazish joylarini belgilash;
- qidiruvdagi shaxslar joylashgan joylariga aniqlik kiritish;
- yo'l harakati holatiga baho berish.

Shuningdek, Rossiyada 2025-yil 1-aprelda “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish davlat axborot tizimini yaratish hamda Rossiya Federatsiyasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida”gi № 41-FZ Federal qonuni qabul qilingan[20]. Unga ko'ra:

– davlat geoinformasion ma’lumot tizimlari maxsus huquqbuzarliklar, xususan aktual axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali sodir etilgan huquqbuzarliklar, jinoyatlarni profilaktika qilish va aniqlash maqsadida ishlab chiqiladi va joriy etiladi;

– geoinformasion tizimi “Antifrod” singari milliy platformalarni o’z ichiga oladi, ular orqali jinoyatlar sodir etishi mumkin bo’lgan raqamli kanallar monitoring qilinadi, tahlil qilinadi va tezkor choralar ko’riladi;

– geoinformasion tizimlar foydalanuvchilari: prokuratura, ichki ishlar organlari, FSB, banklar va ayrim davlat tuzilmalari hisoblanadi.

Belarusda[21] geoinformatsion tizimlaridan foydalanish “Axborot, raqamlashtirish va ma’lumotlarni himoya qilish”, “Shaxsga doir ma’lumotlar”, “Kartografiya faoliyati”, “Davlat axborot tizimlari” to’g’risidagi qonunlar bilan tartibga solingan.

Mazkur qonunlarga ko’ra, politsiya tomonidan quyidagi yo’nalishlarda geoma’lumotlardan foydalanishi mumkin:

- ma’lumotlar bazalarini yaratish va rivojlantirish;
- jinoyatchilikning oldini olish uchun kriminogen vaziyatni tahlil qilish;
- qidiruvdagi shaxs yoki jinoyat sodir etishda gumonlangan shaxs to’g’risidagi ma’lumotlarni to’plash;
- geoinformatsion tizimlarini himoya qilish;
- geoma’lumotlar yuzasidan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Xorijiy davlatlarni kriminogen vaziyatni nazorat qilishda geoinformatsion tizimlaridan foydalanish bo’yicha xorijiy davlatlarning qonunchilik hujjatlari tahliliga ko’ra quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

1) bugungi kunga kelib, geoinformatsion tizimlarini ikki turga, ya’ni umumfoydalanishi mumkin bo’lgan (tijorat maqsadlarda ishlab chiqilgan) hamda maxsus (davlat tomonidan harbiy yoki huquq-tartibot maqsadida ishlab chiqilgan) toifalarga ajratish mumkin bo’lib, ularga nisbatan 30 dan ortiq standartlar va universal qoidalari mavjud.

2) aksariyat davlatlarda kriminogen vaziyatni nazorat qilishda geoinformatsion tizimlari mavjud bo’lsada, ularni tartibga solishi bo’yicha ochiq qonunchilik hujjatlari mavjud emas. Misol uchun, AQShda 20 yildan ziyod mazkur tizim mavjud bo’lsada, hozirgi kunga qadar ixtisoslashgan qonun qabul qilinmagan.

3) o’rganilgan xorijiy davlatlardagi geoinformatsion tizimlaridan foydalanish bo’yicha qonunchilik hujjatlari asosan shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishga yo’naltirilgan bo’lib, shu jumladan shaxsning joylashgan joyi bo’yicha geoma’lumotlarni qamrab olmoqda. Shuningdek, kriminogen vaziyatni nazorat qilish bo’yicha huquq-tartibotni ta’minlash borasidagi geoinformatsion tizimlaridan foydalanish bilan bog’liq faoliyat politsiya to’g’risidagi qonunchilik normalar bilan mustahkamlangan.

4) kriminogen vaziyatni nazorat qilish borasidagi geoinformatsion ma’lumotlari bevosita politsiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan hududni kuzatish, qidiruvdagi shaxslar va transport vositalarini aniqlash, jinoyat yoki favqulodda hodisa sodir etilgan joyida kuch-vositalarni boshqarishdan iborat. Shu bilan birga, xorijiy

qonunchilik hujjatlarida shaxsni kuzatish bo'yicha geoma'lumotlar faqat tegishli sudning qarori (ruxsati) bilan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Yuqorida bayon etilganlarning inobatga olib, O'zbekiston Respublikasida kriminogen vaziyatni nazorat qilishda geoinformatsion tizimlaridan foydalanish borasida quyidagilar TAKLIF ETILADI:

1) geoinformatsion ma'lumotlarini, jumladan shaxsning aynan joylashgan joyi, uning yonida bo'lgan identifikatsiya qilish moslamalari (smartfon, ayrteg, GPS-uskunasi kabi) yig'ilgan ma'lumotlardan huquq-tartibotni himoya qilishda foydalanish tartibini belgilash va ularni uchinchi shaxslardan himoya qilish bo'yicha alohida qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish.

2) IIV, Milliy gvardiya, Bosh prokuratura, DXX hamda tezkor faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa davlat idoralari o'rtasida yagona, himoyalangan axborot-ma'lumotlar almashinuvi imkonini beruvchi kompyuter tarmog'ini yaratish.

3) jinoyatlar, ularni sodir etishi mumkin bo'lgan (IIOning profilaktik hisobiga olingan, turli hisoblarda turuvchi, ilgari sudlangan, probatsiya nazoratidagi kabilar) va gumonlanayotgan (jabrlangan shaxsning ko'rsatmalariga ko'ra tegishli ko'rinishiga ega) shaxslarni videokuzatuv tizimlari, guvohlarning ko'rsatmalari hamda boshqa yo'llar bilan aniqlash va kuzatish, jinoyatchi va qidiruvdagi shaxslarni qo'lga olish maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar bilan tezkor almashish uchun aloqa platformasini ishlab chiqish.

4) jinoyatlar va favqulodda xodisalar haqida kelib tushgan xabar joylarini ro'yxatga olish uchun maxsus elektron xarita yuritish hamda mazkur xaritada barcha voqealarning elektron manzillarini qayd etish uchun dasturiy ta'minot yaratish.

5) huquq-tartibot idoralari xodimlarining kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalar darajasini yanada oshirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarni ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida ilmiy loyihani bajarish to'g'risida AL-11325078166-son shartnoma.

2. <https://www.ogc.org/standards-in-action/>

3. <https://www.iso.org/obp/ui/#iso:std:iso:19101:ed-1:v1:en>

4. <https://www.digitallibrary.un.org> // <https://www.unstats.un.org>

5. <https://chicagocrimecommission.org/>

6. https://www.google.com/search?q=NLETS&rlz=1C1GCEA_enUZ1132UZ1132&oq=NLETS&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyCQgAEEUyORiABDIGCAEQABgeMgYIAhAAGB4yBggDEAAYHjIGCAQQABgeMgYIBRAAGB4yBggGEAAYHjIGCAcQABgeMgYICBAAGB4yBggJEAAYHtIBCDExNDlqMGo3qAIAAsAIA&sourceid=chrome&ie=UTF-8

7. <https://www.congress.gov/bill/114th-congress/senate-bill/237>

8. <https://gdpr-info.eu/>

9. https://home-affairs.ec.europa.eu/policies/schengen/schengen-information-system_en

10. https://recht.nrw.de/lmi/owa/br_text_anzeigen?v_id=3120071121100036031
11. <https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/JORFTEXT000033202746>
12. https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=32575&lang=ENG
13. https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=55914&lang=ENG
14. <https://www.itweek.ru/idea/article/detail.php?ID=60149>
15. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4241/en>
16. <https://data-privacy-office.eu/personal-data-protection-in-united-arab-emirates-uae-law-overview/#:~:text=The%20UAE%20Feder>
17. <https://www.karanfiloglu.av.tr/ru/%D0%B7%D0%B0%D0%BA%D0%BE%D0%BD-%D0%BE%D0%B1-%D0%B8%D0%BD%D1%82%D0%B5%D1%80>
18. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_518063/
19. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_110165/
20. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_502182/
21. <https://cyberleninka.ru/article/n/primenenie-geoinformatsionnyh-sistem-v-informatsionno-analiticheskoy-deyatelnosti-mchs-respubliki-belarus>